

## Namangan viloyat statistika boshqarmasi




#### RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **5051,2 mlrd.so'mni**, o'sish **112,0 %ni** tashkil etdi
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati **5,8 %**
- Iste'mol tovarlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi - **67,8 %**
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – **69,1 %**

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2018 yilning yanvar-noyabr oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 5051,2 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 112,0 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida ishlab chiqarish hajmining 11,0 % ga, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashning 4,4 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning 17,5 % ga o'sishi hisoblanadi.

### 2018 yil yanvar-noyabr oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi



***Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.***

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 16,9 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,3 % ni tashkil etdi.

***Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).***

2018 yilning yanvar-noyabr oyida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 4744,9 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 93,9 % ni tashkil etdi.

***2018 yil yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish***

	2018 yil	2017 yil	2017 yilga nisbatan, %
O'simlik yog'i (tozalanmagan), ming tonna	12,4	13,7	90,9
Paxta linti, ming tonna	3,3	3,3	101,1
Aroq – ming litr 100 % spirt	872,0	945,0	92,3
Vino, ming litr	1338,0	1080,0	123,9
Un, ming tonna	103,4	101,0	102,4
O'simlik yog'i (tozalangan), ming tonna	10,3	12,1	90,9



***Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalash.***

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 223,2 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 4,4 % ni) tashkil etdi.

***Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.***


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 66,2 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,3 % ni) tashkil etdi.



### *Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.*

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 3424,3 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2017 yilning yanvar-noyabr oyiga nisbatan 5,8 % ga ko'paygan, jami sanoatdagi ulushi esa 67,8 % ni tashkil etdi.


### *2018 yilning yanvar-noyabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari*



2018 yilning yanvar-noyabr oylarida oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish hajmi 1169,6 mlrd.so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan 104,9 % ga o'sdi. Nooziq-ovqatlar va vino-arok mahsulotlari hajmi esa 2254,7 mlrd.so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 106,4 % ga o'sdi.

2017 yilning yanvar-noyabr oyiga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 65,5 % dan 2018 yilning yanvar-noyabr oyida 65,8 % bo'lib o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,3 % punktga ortgani kuzatilmoqda.

***Yanvar-noyabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi, % da***




2017 yilning yanvar-noyabr oyiga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 34,5 % dan 2018 yilning yanvar-noyabr oyida 34,5 % bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,3 % punktga kamaygani kuzatilmoqda.

*Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan mahsulotlarining ishlab chiqarilishi*


Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 1138,1 mlrd.so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 116,0% ni tashkil etdi.

O'tgan yilda qo'shma korxonalarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 20,4% ni tashkil etgan bo'lsa, hisobot davrida bu ko'rsatkich 22,5% gacha oshdi.

2017 yil yanvar-noyabr



2018 yil yanvar-noyabr




- Viloyatning boshqa korxonalari
- Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar

### *Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.*

Viloyatda sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Namangan shahar (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 47,3 % ulushini), Uchqo'rg'on (8,8 %), Namangan (9,7 %), To'raqo'rg'on (8,4 %), Uychi tumani (7,0 %), Pop (4,7 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.


### *2018 yilning yanvar-noyabr oylarida hududlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da*



Shu bilan birga eng kam ulush Yangiqo'rg'on (1,3 %), Chortoq (1,7 %), Norin (2,3 %) , Mingbuloq (2,4 %) va Chust (2,9 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

Raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha yuqori texnologiyali loyihalarni amalga oshirish natijasida Namangan shahrida (2017 yilning yanvar-noyabr oyiga nisbatan 115,5 % ga), Pop (118,0 % ga), va Mingbuloq (142,0 % ga) sezilarli darajada ishlab chiqarish hajmining oshishi ta'minlandi.

**2018 yilning yanvar-noyabr oylarida hududlarda sanoat ishlab chiqarish hajmining o'sish sur'atlari**  
(o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan, % da)






### *Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi.*

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 7,7 % ga ortdi va o'z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 69,1 % tashkil etmoqda.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Yangiqo'rg'on (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Chortoq (100,0 %), Kosonsoy (88,0 %), Namangan (87,0 %) va Chust (72,8) tumanlarida kuzatildi. Shu bilan birga, eng kichkina ulush Mingbuloq (28,6 %), Pop (30,6 %) va Uchqo'rg'on (56,0 %) tumanlarida kuzatildi.


### *2018 yilning yanvar-noyabr oylarida hududlar bo'yicha kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda ulushi, % da*



***Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari.***


Bugungi kunda viloyatda 4200 dan oshiq sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 2026 tasi Namangan shahrida, 317 tasi Chust, 306 tasi Uychi, 290 tasi Namangan, 246 tasi Kosonsoy, 253 tasi To'raqo'rg'on, 164 tasi Chortoq, 150 tasi Uchqo'rg'on, 151 tasi Yangiqo'rg'on, 145 tasi Pop, 145 tasi Norin va 87 tasi Mingbuloq tumanida joylashgan.

***2018 yil 1 dekabr holatiga faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni***



Joriy yilning yanvar-noyabr oylarida viloyatda 829 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etilgan bo'lib, ulardan 67,6 % Namangan shahri, Chust, To'raqo'rg'on, Uychi va Kosonsoy tumanlariga to'g'ri keladi.

*2018 yil 1 dekabr holatiga yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni*



**Namangan viloyat statistika boshqarmasining  
Sanoat statistikasi bo'limi**

Nashr uchun mas'ul:

E.Jalilov

Aloqa telefoni:

(0371) 230-84-80